



# "O'zkiyosanoat" AJ tizimida korrupsiyaviy xavflarning oldini olish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar

// 04 December 2023 yil

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-tizimida-korrupsiyaviy-xavflarning-oldini>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KORRUPSIYAGA QARSHI  
KURASHISH AGENTLIGI



**Uzkiyosanoat**  
Aksiyadorlik jamiyati

## KORRUPSIYAVIY XAVFLARNING OLDINI OLISH YUZASIDAN AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

**"O'zkiyosanoat" AJ tizimidagi 3 ta tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi (ISO 37001:2016) joriy etildi va 61 nafar xodim mazkur xalqaro standart bo'yicha malaka sertifikatiga ega bo'ldi.**

Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozim va funksiyalarda ishlayotgan **15 nafar** xodim Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha malaka oshirish kursida;

**46 nafar** xodim maxsus o'quv dasturi doirasida o'qitildi.

Yangi ishga qabul qilingan **52 nafar** xodimning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirildi.

Nazorat tadbirlari natijasida jami **19,7 mlrd** so'mlik zarar yetkazilganligi aniqlandi va uning **11,3 mlrd** so'mi undirildi.

**O'tkazilgan 57 ta nazorat tadbirlari natijasida 6 ta jinoyat ishi qo'zg'atilib:**

- **23 nafar** xodim jinoy javobgarlikka tortildi;
- **57 nafar** xodim egallab turgan lavozimidan bo'shatildi;
- **180 nafar** mas'ul xodimlarga nisbatan turli intizomiy jazolar qo'llanildi.

Jami **8454** nafar boshqaruv xodimlaridan **manfaatlar to'qnashuvi** to'g'risidagi deklaratsiyalar olinib, **61 ta** holatda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi aniqlandi va bartaraf etildi.

**2022-yil yakunlari bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samaradorligini reyting baholash natijalariga ko'ra, vazirlik va idoralar ichida 89 ball bilan 4-o'rinni egalladi.**

**Korrupsiyaning oldini olish va ochiqlikni ta'minlash yuzasidan:**

- ▶ Mahsulotlarni sotish jarayoni avtomatlashtirildi;
- ▶ Tayyor mahsulotlarni sotish va omborxonalariga joylashtirishda markirovka qilish jarayoni yo'lga qo'yildi;
- ▶ Omborxonadagi elektron tarozilarni markazlashgan tartibda nazorati yo'lga qo'yildi;
- ▶ Ijara omborlari to'liq videokameralar bilan jihozlandi.

anticorruption.uz @antikor\_uzb @anticorruptionUzb @anticorruption.uz Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

AJ tizimdagi 3 ta tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi (ISO 37001:2016) joriy etildi;

AJ va tarmoq korxonalarida 61 ta holatda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi aniqlandi va bartaraf etildi;

Nazorat tadbirlari natijasida jami 19,7 mlrd so'mlik zarar yetkazilganligi aniqlandi va uning 11,3 mlrd so'mi undirildi;

57 ta nazorat tadbirlari natijasida 6 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi.

**"O'zkiyosanoat" AJ 2022-yil yakunlariga ko'ra, Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samaradorligini reyting baholash natijalari bo'yicha vazirlik va idoralar o'rtasida 89 ball bilan 4-o'rinni egalladi.**

**Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Matbuot xizmati**